

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIRISH

*Samandarov Asadbek O'zbekiston
Respublikasi bank moliya akademiyasi
Bank ishi va audit yo'nalishi*

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi tijorat banklari moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan ko'rsatilgan tavsiyalari va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining Yevropa markaziy banki tomonidan qo'llaniladigan ko'rsatkichlari berilgan.

Kalit so'zlar: Aktiv, passiv, aktivlar sifati, bank kapitali, barqarorlik, Bazil qo'mitasi, likvidlilik, risk.

KIRISH

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi bugungi kunda ko'p iqtisodiy adabiyotlarda keng munozaraga sabab bo'lmoqda. Moliyaviy barqarorlik bu moliya tizimi, xususan, moliya bozorlari va moliyaviy institutlar tizimining beqaror iqtisodiy sharoitda asosiy funksiyalarini bajara olish qobiliyatiga aytiladi (Fredrik S. Mishkin).

ASOSIY QISM

Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xorijiy olimlar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan. Banklarning barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilk ilmiy izlanish olib borgan olim Garvard universitetining moliya va bank ishi bo'yicha professori Oliver M. V. Sprague hisoblanadi [2]. Uning tadqiqoti bank mijozlarining ishonchini oshirish orqali bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash g'oyasini ilgari surdi. So'nggi yillarda ilm-fanning rivojlanishi banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha yangi metodlar yaratildi. Eng so'nggi zamonaviy kompyuter dasturlariga asoslangan metodlar bugungi kun amaliyotida qo'llanilmoqda.

Robert C. Mertonning fikricha moliyaviy institutlar o'rtasida sof raqobat darajasi oshishi va ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanishi moliyaviy barqarorlik darajasi mustahkamlanishiga olib keladi [3].

Kolumbiya universiteti professori bank moliya sohasi yetuk mutaxassislaridan biri Frederik S. Mishkinning ta'kidlashicha, bank tizimidagi ma'lumotlarning noaniqlik darajasi oshishi, ishonchsizlik darajasi oshishi banklarning moliyaviy barqarorligini pasaytiradi.

Quyidagi 1-jadvalda keltirilgan tavsiyalar Xalqaro valyuta fondining tavsiyalari bo'lib, bugungi kunda Yevropa markaziy banki tomonidan amaliyotda ko'llab kelinmoqda. Ushbu keltirilgan tavsiyalarni O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda o'rganib chiqdik. Quyida ularning tarkibi keltirilgan.

1-jadval. Xalqaro valyuta fondining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari

No	Kategoriya	Ko'rsatkich
1	Kapital monandligi	Umumiy kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati
		Birinchi darajali kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati
		Muammoli kreditlarga ajratilgan zaxira ajratmalarining aktivlarga nisbati
2	Aktivlar sifati	Muammoli kreditlarning umumiy kreditlardagi ulushi
3	Daromad va foydalilik darajasi	Aktivlarning daramodlilik darajasi (ROA)
		Aksiyadorlik kapitalining daromadlilik darajasi (ROE)
		Foizli daromadning yalpi foydadagi ulushi
		Foizsiz xarajatlarning yalpi foydadagi ulushi
4	Likvidlilik darajasi	Likvidli aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi
		Likvidli aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati
5	Xorijiy valyuta bilan bog'liq risk darajasi	Bank sof ochiq valyuta pozitsiyasining kapitalga nisbati

Manba: Adam Gersl and Jaroslav Hermanek, “ Financial stability indicators: Advantages and disadvantages of their use in the assessment of financial system stability”

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlardan kapital monandligi qo'rsatkichi birdan sodir bo'ladigan moliyaviy yo'qotishlarga bankning qay darajada moliyaviy bardoshligini ko'rsatsa, aktivlar sifati esa bankning to'lovga qay darajada qobilligini ifodalaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning O'zbekistonning banklari amaliyotida qo'llagan holda tahlil qilishdan iborat. O'shbu maqsadni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik [4].

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining ba'zi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari o'zgarishi

No	Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	Asosiy kapital yetarlilik darajasi	16,19 %	13,83 %	13,66 %	18,8 %
2	Birinchi darajali kapital yetarliligi	14,98 %	12,26 %	12,4 %	17,3 %
3	Aktivlar sifati	0,94%	0,69 %	0,29 %	0,45 %
4	ROA	1,70%	1,69 %	2,02 %	1,76 %
5	ROE	13,86 %	14,35 %	12,6 %	10,8 %
6	Joriy likvidlilik darajasi	67,13 %	67,12 %	66,73 %	87,7 %

Manba: “Ahbor-Reyting” reyting agentligini ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqorida keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasi bank tizimi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining 3 yil davomida o'zgarish tendensiyasi keltirilgan. Mamlakatimiz bank tizimi kapitali yetarlilik darajasini baholash Bazel standarti tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'yilgan talabga muvofiq asosiy kapitalning eng past darajasi 2022 yil 1 yanvargacha 10 %, birinchi darajali kapitalning eng past darajasi esa 5 % qilib belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bazel qo'mitasining yangi talablarini qabul qildi va unga muvofiq 2022 yil 1 yanvardan asosiy kapitalning eng past darajasi 11,5 %, 2025 yil 1 yanvardan 14,5 % yetkazish belgilandi. Shu bilan birga, 2022 yil 1 yanvardan birinchi darajali kapitalning eng past darajasi esa 7,5% bo'lishi tasdiqlandi. Tahlillarimiz ko'rsatdiki, tijorat banklari asosiy kapitalining yetarlilik darajasida kamayish tendensiyasi kuzatilgan. 2020 yilda 16,19 %, 2021 yilda 13,83 %, 2022 yilda 13,83 %. Birinchi darajali kapitalning yetarlilik darajasi 2021 yilda 2020 yilga nisbatan 2,7 % ga kamaygan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 0,2 % ga o'sgan. Shu bilan birga tijorat banklarining muammoli kreditlari hajmi kamayishi aktivlar sifati yaxshilanishiga olib kelgan. Xususan, o'rganilgan davr mobaynida, umumiy kreditlar hajmida tijorat banklarining uzoq muddatli muammoli kreditlari ulushi 2020 yilda 0,94 %, 2021 yilda 0,69 % va 2022 yilda 0,29% tashkil qildi. 2023 yilda tijorat banklari aktivlari va aksiyalarining daromadlilik darajasi kamaygan. 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, ROA 1,76% tashkil qilgan bo'lsa, ROE 10,8% ga kamaygan [6].

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bank faoliyatida yuzaga keluvchi xavf-xatarlarning ta'sir qilish doirasining oldini oladi. Yuqoridagi tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga ega bo'ldik:

birinchidan, daromad keltirmaydigan aktivlarning jami aktivlardagi ulushi yuqoriligi;

ikkinchidan; risk darajasi yuqori bo'lgan aktivlar hajmining jami aktivlardagi ulushi juda yuqori;

uchinchidan, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan investitsion operatsiyalarining rivojlanmaganligi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Lavrushin O.I. Bank ishi. – M.: KnoRus, 2018. – b. 251.
2. McNaughton D. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi bank institutlari. Per. ingliz tilidan - Vashington: IER, 2014.
3. Edwin J. Dolan va boshqalar Pul, bank va pul-kredit siyosati. – Sankt-Peterburg: “Sankt-Peterburg orkestri”, 2014. – B. 90-93.
4. Umarova Z.S. Tijorat banklarining kredit emissiyasini tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – B. 16.
5. www.stat.uz
6. www.ziyonet.uz